

ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz


ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-mart – mamlakatimizda Navro‘z umumxalq bayramiga uyg‘un holda xalqimizning ardoqli shoiri

ABDULLA ORIPOV

tavalludi kuni ham keng nishonlanishi ezgu adabiy an‘anaga aylangan. Bu yil ijodkor tavalludining 85-yilligi munosabati shoir yashab ijod qilgan xonadon – Toshkent viloyatidagi “Do‘rmon” ijod uyida O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning uy-muzeyi ochildi.



ADABIYOTSHUNOSLIK

O'ktam MURODOV.
AMIR TEMUR, ABDULQODIR MAROG'II VA
TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MAJLISLARI..... 23

Gulrux IMAMOVA.
ERNEST XEMINGUEY IJODIDA ADABIY
PORTRET VA INSON TASVIRIGA OID AYRIM
MULOHAZALAR. 25

М.Р. ТУРДЫЕВА.
СПЕЦИФИКА ПОЗДНЕГО ТВОРЧЕСТВА
В.С.ТОКАРЕВОЙ 27

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Sherzodbek ERMATOV.
Akramjon MIRZAYEV.
MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI
FANI KONTEKSTIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING
SUN'IY INTELLEKT SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI..... 30

Lobar IBROXIMOVA.
KEYS-METOD ORQALI CHET TILI DARSLARIDA
KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISH..... 32

Maxmuda YULDASHEVA.
ADABIYOT DARSLARIDA EVRISTIK
XARAKTERDAGI TOPSHIRIQLARDAN
FOYDALANISH METODIKASI 34

Nafosat OROMOVA.
ADABIYOTNI O'QITISHDA FANLARARO
INTEGRATSIYA: NAZARIY VA
AMALIY YONDASHUV 38

Nargiza JUMAQULOVA.
ADABIY TA'LIMDA DIDAKTIK MUVOZANATNI
TA'MINLASH MEXANIZMLARI..... 40

Sarvinoz OMONOVA.
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZMA
SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI 42

Дильфуза ХУДАЙБЕРДИЕВА.
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ
ТЕХНОЛОГИИ В АСПЕКТЕ ЛИЧНОСТНО-
ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В
ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ 45

Madina BOZOROVA.
"MICRO-TRANSLATION TASKS AS A METHOD OF
DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS" 47

TADQIQOTLAR

Nilufar AVAZOVA.
O'ZBEK SHE'RIYATIDA TO'RTLIK JANRINING
MAVZU DOIRASI..... 50

Mohira NURMUXAMEDOVA.
ALPOMISH, JUMONG VA ILYA MUROMETS
OBRAZLARINING AFSONA VA TARIXDAGI O'RNI 53

Dildora RAXMANOVA.
AKA-UKA GRIMM ERTAKLARIDAGI KONSEPTUAL
METAFORALARNING LINGVISTIK TAHLILI 55

Roziya USMONOVA.
TRANSFORMER MODELLARINING TABIIY TILNI
TUSHUNISHGA TA'SIRI..... 58

Gavharoy XOLISOVA.
TIJORIY DISKURSNING LINGVOMADANIY VA
KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI..... 61

Shaxzoda MUXAMMADALIYEVA.
MAKONIY KODLARDA RAMZIY
MA'NONING AKS ETISHI..... 63

Moxigul ALMARDONOVA.
QASHQADARYO VILOYATI TOPONIMLARINING
TARIXIY SHAKLLANISHI VA ULARNING HUDUD
XOTIRASIDAGI O'RNI 65

Manzura NARZILLOYEVA.
JONDOR MIKROTOPONIMLARINING
ETIMOLOGIK TADQIQI..... 67

Iqbol RUSTAMOVA.
KONSEPT VA UNING DUNYO
TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI 69

Saida ABRAMATOVA.
QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK
NUQTAYI NAZARIDAN FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI 71

Otabek ISAKOV.
Farxod FAYZULLAYEV.
MEDITSINA TERMINLARINI TARJIMA QILISHDA
EKVIVALENTLIK MASALASI 74

Madina XASANOVA.
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIL
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM
JARAYONINING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI 77

Munira UMAROVA.
ESP KURSLARI UCHUN O'QUV DASTURINI
TANLASH MUAMMOSI 80

Shaxnoza MUXTAROVA.
FANLARARO INTEGRATSIYA - ZAMONAVIY TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI..... 83

Shohsanam ODINAYEVA.
TALABA YOSHLARDA IJTIMOYIY XAVOTIR
DARAJASINING KASBIY O'Z-O'ZINI ANGLASH VA
KASBIY IDENTIFIKATSIYAGA TA'SIRI..... 85

Nafisa TURSUNOVA.
TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA IFODALI O'QISHNING O'RNI..... 88

Maxbuba SADIKOVA.
TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARGA
XORIJIIY TILNI O'QITISHDA KASBIY
TERMINOLOGIYANING O'RNI 90

Maxmuda YULDASHEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

e-mail: mahmudauldaseva@gmail.com



ADABIYOT DARSLARIDA EVRISTIK XARAKTERDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, adabiy ta'lim jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik usullar asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni, ya'ni mustaqillik, epcchillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, o'yinlar.*

Аннотация: в статье анализируются процессы обучения учащихся творчеству, рефлексии и самостоятельности на уроках литературы, эвристические методы обучения, основная суть использования эвристических методов в процессе литературного образования, а также методы обучения учащихся поиску и открытию своих знаний, и то, как задания и упражнения, основанные на эвристических методах, эффективно формируют у учащихся такие компетенции, как инициативность, самостоятельность, ловкость и принятие решений.

Ключевые слова: *творчество, творческая деятельность, эвристический метод, эвристический подход, современная педагогика, творческая деятельность, эвристическое образование, творческое задание, игры.*

Annotation: the article analyzes the processes of teaching students creativity, reflection and independence in literature lessons, heuristic teaching methods, the main essence of using heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for and discover their knowledge, and how tasks and exercises based on heuristic methods effectively form such competencies in students as initiative, independence, dexterity and decision-making.

Key words: *creativity, creative activity, heuristic method, heuristic approach, modern pedagogy, creative activity, heuristic education, creative task, games.*

Mamlakatimizda o'quvchilarni erkin fikr bildirish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, badiiy matn bilan ishlash jarayonida "o'z javobi"ni ayta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish – adabiyot o'qitishning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Adabiyot darslarini tashkil etishda o'rganish va kashf qilishga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'quv faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa ularning har tomonlama raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1:14] – degan fikrlari yoshlarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish,

badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, qiziquvchanlik, yangiliklarga intiluvchanlik sifatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Respublikamiz adabiy ta'lim tizimida evristik metodlardan foydalanish A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova [2:233; 3:306; 4:300; 5:253; 6:262; 7:150] kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida o'qitishning hayot bilan aloqadorligi, ma'naviyat va estetik asoslarning ustuvorligi, mustaqil ishlarni uyushtirish, o'quvchilarning adabiy tahlil malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalari doirasida yoritilgan. Evristik yondashuv orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish, ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari N.S.Mamatov, J.Tursunov, Sh.Hamdamiy,

D.J.Gaipov, I.G'Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xalloqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimova, R.Xurramov [8:114; 9:4; 10:40] kabi pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun o'qituvchi qanchalik mas'uliyat bilan yondashsa, o'quvchi ham xuddi shunday ishtiyoq bilan harakat qiladi. Bunda eng ma'qul yo'l asosiy e'tiborni metod va usullarni to'g'ri tanlashga qaratishdir. Shu nuqtayi nazardan ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish yangi pog'onaga ko'tariladi. Inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi yaratuvchanlik va ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatlarini mustaqil ko'rsata oladi.

O'quvchilarning ijodiy-intellektual salohiyati rivojida, avvalo, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlar alohida o'rin tutadi. "Ijod maktablari uchun adabiyot fanidan ta'lim dasturi"da ijod maktablari o'quvchilarida milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kompetensiyalarini shakllantirishga yondashilgan [11:33].

Ushbu dasturga e'tibor qilinsa, turli janr, mavzu va yo'nalishdagi asarlar o'quvchilarning bilish jarayonlariga mos holda tanlangani ayonlashadi. Xususan, epik va

dramatik turga mansub quyidagi asarlar kiritilganini o'quvchilarning qiziqishlari, zamon bilan hamnafasligi axborotlashuv davri talablari bilan muvofiqlashtirilganini ma'lum bo'ladi. Xususan, 7–8-sinflar dasturida, asosan, eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganilishi ko'zda tutilgan. Yirik epik asarlarni o'rganish esa yuqori sinflar uchun rejalashtirilgan. Bu esa dasturning ilmiylik, kommunikativlik, shaxsga yo'naltirilganlik, integrativ va madaniy tamoyillar asosida tuzilganini ko'rsatadi.

Ayonlashadiki, dasturda epik va dramatik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan. Ular tasvirda tafsilotlarning ustuvorligi, voqealarning izchil bayoni va bir qator obrazlar tizimiga egaligi bilan ham ijod maktabi o'quvchilarning bilish jarayonlariga mos keladi. Odatda, har bir darslik yoki qo'llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol-topshiriqlar beriladi. Quyida ijod maktablarining 8–9-sinf o'quv dasturidagi ayrim mavzularni o'rganish uchun tavsiya sifatida evristik xarakterdagi topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Bu jihat o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy sifatleri, estetik didi va tanqidiy tafakkuri rivojida ahamiyatlidir (1.6-, 1.7-jadvalarga qarang).

1.6-jadval

Ijod maktablari uchun adabiyot bo'yicha ta'lim dasturida berilgan 8-sinf mavzulari bo'yicha tavsiya sifatida ishlab chiqilgan evristik xarakterdagi topshiriqlar

8-sinf adabiyot darsligining I qismida berilgan mavzular [12:204]	
Mavzular	Ijodiy topshiriqlar namunasi
"Ravshan" dostoni	"Ravshan" dostoni mazmuniga doir peyzaj namunasini chizing. Ushbu san'at asaringizni qanday nomlagan bo'lar edingiz?
Antuan de Sent-Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda" qissasi	Sayyoralar, baobab daraxti haqida nimalarni bilasiz? Bu haqda manbalardan ma'lumotlar tayyorlang va sinfda o'qib bering.
Chingiz Aytmatov. "Oq kema" qissasi	"Oq kema" qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi sizga yuklatilsa, kimlarga yuzlanar edingiz? Qahramonlarga beradigan savollaringizni qoralab chiqing va sinfdoshlaringizga o'qib bering.
Aleksandr Grin. "Alvon yelkanlar" qissasi	Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday mushtaraklik bor?
Xayriddin Sultonov. "Saodat sohili" qissasi	"Saodat sohili" qissasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlang.
Alfons Dode. "So'nggi saboq" hikoyasi	"Besh panja" usuli 1. Asar haqida 5 ta ma'lumot ayting. 2. Hikoyaning g'oyasi nimalardan iborat? 3. Asar personajlari ruhiy holatini o'rganing. 4. Hikoyada vatanga muhabbat tuyg'usi qaysi lavhalar orqali kuchliroq yoritilgan? 5. Hikoya so'ngida qanday xulosaga keldingiz?

8-sinf adabiyot darsligining 2-qismida o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular	
Xurshid Do'stmuhammad. "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi	1. Ushbu hikoya mazmuni asosida sahnalashtirilgan ko'rinishlar yarating. 2. Mirkomilboyning iztiroblariga monand kuy tanlang.
Maqsud Shayxzoda. "Jaloliddin Mangubardi" dramasi	Drama yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishing. O'zingizga ma'qul bo'lgan maqolaga taqriz yozing.
O.Henri. "Yigirma yildan so'ng" hikoyasi	Xayolan asar qahramoni Jimmi bilan uchrashing. Unga qanday savollar bilan murojaat qilgan bo'lardingiz?
Shukur Xolmirzayev. "Ot egasi" hikoyasi	1. Asarning bosh qahramoniga 10 ta ta'rif bering. 2. Asarda keltirilgan daraxt, hayvon, taom va detal nomlaridan yodingizda qolganini yozing.
Robindranath Thakur. "Shubha" hikoyasi	"Zabonsiz qiz hayqirig'i" mavzusida taassurotlaringizni yozing. Uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
Isajon Sulton. "Shamolli kecha" hikoyasi	Tasavvur qiling, siz yozuvchisiz. Mazkur hikoyani qanday yakunlagan bo'lardingiz?
Sadriddin Ayniy. "Sudxo'rning o'limi" qissasi	Asarda uchragan maqollarni toping. Topgan maqollaringiz izohini matn asosida dalillang.

1.7-jadval

Ijod maktablari uchun adabiyot bo'yicha ta'lim dasturida berilgan 9-sinf mavzulari bo'yicha tavsiya sifatida ishlab chiqilgan evristik xarakterdagi topshiriqlar

9-sinf adabiyot darsligining I qismida berilgan mavzular	
Mavzular	Ijodiy topshiriqlar
Jek London. "Hayotga muhabbat" hikoyasi	Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini qiyosiy tadqiq qiling. Asarlar o'rtasidagi mavzu, mazmun, g'oyaviy qarashlar, badiiy tasvir va yozuvchilarning badiiy obraz yaratish mahorati jihatidan qanday yaqinliklarni kuzatdingiz?
Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani	Roman bo'yicha qanday xulosaga kelganingiz haqida qisqacha matn tuzing.
Valentin Rasputin. "Fransuz tili saboqlari" hikoyasi	"Fransuz tili saboqlari" hikoyasi nomi va syujeti bir-biriga mos kelganmi? Siz hikoyani qanday nomlagan bo'lar edingiz?
9-sinf adabiyot darsligining 2-qismida o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular	
Shukurullo. "Kafansiz ko'milganlar" xotira-roman	Asardagi Shukurulloning uyini tintuv qilish jarayoni... Ushbu syujet yana qaysi asarlarda uchraydi?
Tohir Malik. "Alvido, bolalik" qissasi	"Agarda men yozuvchi bo'lsam..." mavzusida hikoya syujeti saqlangan holda ushbu hikoya yakunini o'z tasavvuringiz bo'yicha yakunlang.

Yuqoridagi namunalarda mantiqiylikka tayanish bilan birga fanlararo integratsiyaga alohida urg'u qaratilgani ham kuzatiladi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish bilan birga ijodkorlik, obrazli tafakkurni rivojlantirish, tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirishga erishiladi. Namunalarda shakli va mazmuniga diqqat qilinsa, asarlarning janriy xususiyatlariga ko'ra topshiriqlar deyarli takrorlanmagani va qiziqarli tarzda qo'yilgani uchun ham o'quvchilar bu jarayonda zerikmaydi. Masalan, Ekzyuperining "Kichkina

shahzoda" qissasi bo'yicha berilgan sayyoralar, baobab daraxti haqida ma'lumotlar tayyorlash, A.Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday mushtaraklik borligini tadqiq etish, M.Shayxzodaning "Jaloliddin Mangubardi" dramasi yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishish va ushbu maqolaga taqriz yozish, S.Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasida uchragan maqollarni topish va izohini matn asosida dalillash, J.Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan Sh.Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini

qiyosiy tadqiq qilish, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asaridagi tintuv jarayoni yana qaysi asarlarda uchrashini aniqlash topshiriqlari o‘quvchilarni izlanuvchanlik va tadqiqotchilikka o‘rgatadi.

R.Thakurning “Shubha” hikoyasi yuzasidan taassurot yozish, T.Malikning “Alvido, bolalik” qissasi va I.Sultonning “Shamolli kecha” hikoyasining yozuvchi sifatida o‘zgacha yakunini yozish, V.Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasi nomi va syujetini inobatga olgan holda boshqacha nomlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarni ijodkorlikka va ijodiy fikrlashga undaydi.

Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi, X.Sultonovning “Saodat sohili” qissasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlash, O.Henrining “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasi qahramoniga savol yo‘llash topshiriqlari o‘quvchilarning intellektual va

ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va iqtidorli o‘quvchilarni kashf etishga xizmat qiladi. X.Do‘stmuhammadning “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi asosida sahnalashtirilgan ko‘rinishlar yaratish va asar qahramoni iztiroblariga mos kuy tanlash kabi topshiriq orqali o‘quvchilar adabiyot fani nafaqat so‘z san‘ati, balki san‘atning ko‘plab turlari bilan aloqadorligini his qiladilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, evristik yondashuv asosida bilim berish –o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘z oldiga ta‘lim samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib qo‘llashning tizimli metodidir. Har qanday interfaol metod va usullar to‘g‘ri hamda maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIX, 2016. 14-b.
2. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 333 б.
3. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. 306 б.
4. Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. 300 б.
5. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. 253 б.
6. Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. 262 б.
7. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. 150 б.
8. Маматов Н.С. Эвристик мезонлар асосида информатив белгилар фазосини шакллантириш усуллари ва алгоритмлари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2010. 114 б.
9. Tursunov J. O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta‘lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. № 3. 24–26-b.
10. Hamdamov Sh. “Evristik suhbat” usuli/ “Ma‘rifat”. – Toshkent, 2020. – № 24. 4-b.
11. Ijod maktablari uchun adabiyot bo‘yicha ta‘lim dasturi. – Toshkent: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi, 2022. 33-b.
12. Nurmuhhammadov J., Qambarova S., Olimjanov O., Yuldasheva M., Inomjonova S. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik / – Toshkent: Adast poligraf, 2022. 204-b.